

Yangi yil arafasida Surxondaryoda 43 ming 49 oila moddiy yordam oladi



Yangi yil arafasida Surxondaryoda 43 ming 49 oila moddiy yordam oladi. Prezident qaroriga ko'ra, shu yilning dekabr oyida "Temir daftar" ro'yxatida bo'lgan, shuningdek, 18 yoshga to'lmagan farzandlari bor boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi hamda 18 yoshgacha bolalar uchun nogironlik nafaqasini oluvchi oilalarga 800 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi. Surxondaryo viloyati hokimligi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasidan olingan ma'lumotga ko'ra, viloyatda "Temir daftar" ro'yxatida bo'lgan 17 203 ta oilaga ushbu bir martalik moddiy yordam mablag'larini ajratish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, viloyatda 18 yoshga to'lmagan farzandlari bor boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi yoki nafaqasini oluvchi hamda 18 yoshgacha bolalar uchun nogironlik nafaqasini oluvchi oilalar 25 846 tani tashkil etadi.

Yangi yil bayrami arafasida viloyatdagi 721 ta mahalla fuqarolar yig'inida 43 049 oilaga jami 34,4 mlrd. so'm miqdorida moddiy yordam beriladi.